



## NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

**210800, Tomdi tuman, Yangi Tomdi qo'rg'oni, tel: (79) 582-13-13, fax: 582-13-22, e-mail: tomdi@nv.uz**

2023 - yil 16 - oktabr

70-5-75-Q/23

Tomdi tumani hokimligi

### **Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinalining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktyabrdagi O'RQ-642-sonli "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.20.2020 y., 03/20/642/1396-son) hamda O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktyabrdagi O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020 y., 03/20/641/1389-son) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinalining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizom (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son) hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y., 9-son, 320-modda*) 6-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinalining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Belgilanishi kerak bo'lgan ish o'rinalining eng kam sonini va ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash bo'yicha maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga, tuman bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinalini 2024 yil uchun band qilib qo'yish lozim bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish

uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 5 foizi miqdorida, bu 44 kishini (2-ilovaga muvofiq) tashkil etadi.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 11,36 foiz (5 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 79,5 foiz (35 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 4,5 foiz (2 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 4,5 foiz (2 kishi)miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minalash uchun 2023 yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylarini umumiy miqdorining kamida 25 (yigirma besh) foizi uchun, 2024 yilning 10 apreldidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 (yetmish besh) foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va mazkur qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ish o‘rinlarini band qilgan korxona va tashkilotlar tomonidan 2024 yil 1 apreliga qadar band qilingan ish o‘rinlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 sentyabrdagi 263-sonli qaroriga asosan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazish amalga oshirilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishi yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya-gigiyena normalariga va hodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minalaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minalasinlar.

6. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda, korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiyonalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 22-bandiga muvofiq jarima solinishi belgilansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiyonalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiyonalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnomaga asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

8. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (O.Madenov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalarga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022 yil 30 sentyabrdagi 112-5-75-Q/22-sonli qarori 2024 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotishi belgilab qo‘yilsin.

10. Mazkur qaror tuman “TAMDЫ sharuageri” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining “Tomdi.uz” rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rnbosari O.Umarov va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i O.Madenov zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi



K.Aldabergenov

Tomdi tuman hokimining  
2023-yil 16-oktabrdagi  
70-5-75-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan  
talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiya**

**T A R K I B I**

<b>T/r</b>	<b>F. I. Sh</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	O.Umarov	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnibosari-Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i, <b>komissiya raisi</b>
2.	O.Madenov	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, <b>komissiya raisi o‘rnibosari</b>

**A ’ Z O L A R I**

3.	R.Yeskabulov	Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi boshlig‘i
4.	M.Norqulov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
5.	M.Bazarbayev	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri
6.	Sh.Bobomurodov	Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
7.	K.Aldajarov	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish buyicha bek ofis bosh mutaxassis, <b>komissiya kotibi</b>

*Izoh: komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.*

Tomdi tuman hokimining  
2023-yil 16-oktabrdagi  
70-5-75-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Tuman bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinxlarini  
2024 yil uchun band qilib qo'yish lozim bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar**

**RO'YXATI**

№	Ijtimoiy muhofazaga muxtoj , ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinxlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar nomi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlar-ning umumiyl soni	Kelgusi 2024 yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinxlar soni	Shu jumladan						
				14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota onalar uchun band qilingan ish o'rinxlar soni	Umumiy o'rta maxsus , kasb- hunar ta'limi muassasalari-ning davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar uchun band qilingan ish o'rinxlar soni	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bushatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinxlar soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinxlar soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinxlar soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdag majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinxlar soni	Odam savdos qurbanlari uchun band qilingan ish o'rinxlar soni
1	Tuman Tibbiyot birlashmasi	341	17	2	13	0	1	1	0	0
2	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	71	3	1	2	0	0	0	0	0
3	Tuman 1-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabi	45	2	0	2	0	0	0	0	0
4	Tuman 3-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabi	40	2	0	2	0	0	0	0	0
5	Tuman 5-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabi	31	1	0	1	0	0	0	0	0
6	Tuman 6-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabi	37	1	0	1	0	0	0	0	0
7	Tuman 7-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabi	32	1	0	1	0	0	0	0	0

<b>8</b>	Tuman 8-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	35	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>9</b>	Tuman 9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	33	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>10</b>	Tuman 10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	30	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>11</b>	Tuman 12-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	38	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>12</b>	Tuman 15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	36	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>13</b>	Tuman davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘limi	68	3	1	2	0	0	0	0	0
<b>14</b>	Tuman bolalar va o‘smirlar sport maktabi	33	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>15</b>	Tuman madaniyat bo‘limi	26	1	0	1	0	0	0	0	0
<b>16</b>	Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	103	5	1	2	0	1	1	0	0
<b>17</b>	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	43	2	0	2	0	0	0	0	0
<b>Tuman bo‘yicha jami:</b>		<b>1042</b>	<b>44</b>	<b>5</b>	<b>35</b>	<b>0</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>0</b>	<b>0</b>